

SURXON TONGI

2026-yil
14-yanvar
(chorshanba)
2-son
(17 986)

1935-yil 18-martdan chop etila boshlagan



surxontongi.uz



t.me/surxontongi

BIR SHAHAR QURAYLIKKI...

Bugun Surxondaryoning qay nuqtasiga bormaylik, ulkan bunyodkorlik ishlari amalga oshirila-yotganiga guvoh bo'lamiz. Bir zamonlar katta-kichik biror imorat qurilgudek bo'lsa, yo yashil bog' ustiga, yo serhosil yerni nobud qilish hisobiga amalga oshirilardi.



ISLOHOTLAR SAMARASI

Ammo bugun qarashlar o'zgaradi, amaldagi sa'y-harakatlarimiz esa ayni qarashlarga xos va mos. Biz tiriklikni payhon qilishga emas, ona sayyoramizni yashillikka burkashga bel bog'laganmiz. Qanday shaharsozlik loyihalarini amalga oshirmaylik, har bir harakatimizning mevasi o'laroq qad rostlayotgan osmono'par binolarimiz atrofi bog'-u bo'stonga, gulzorga, yashillikka

burkanishi maqsad qilingan. Vohamizda joriy yilda ham hududlarning shaharsozlik qiyofasini zamonaviylashtirish, aholini barcha zarur infratuzilmalarga ega bo'lgan qulay va sifatli turar joylar bilan ta'minlash maqsadida qator yirik loyihalarni amalga oshirish rejalashtirilgan. Mazkur dasturlar doirasida Termiz tumanining "Navro'z" mahallasi hududida turar joylar, ikkita maktab va

boshqa ijtimoiy soha obyektlari, savdo hamda maishiy xizmat ko'rsatish nuqtalari, akvapark va mehmonxonalarni o'z ichiga olgan "Termiz eko shahar" loyihasi qurilishiga start berildi. Tadbirda viloyat hokimi Ulug'bek Qosimov ishtirok etib, loyiha doirasida barpo etiladigan turar joy va boshqa binolarning joylashuvi, shuningdek, birinchi bosqichda qurilishi

rejalashtirilgan obyektlar taqdimoti bilan tanishdi. Shu bilan birga, mas'ullar va qurilish tashkilotlari rahbarlariga tasdiqlangan loyihalarni sifatli va belgilangan muddatlarda amalga oshirish, barcha muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmalarini to'liq ta'minlash bo'yicha aniq vazifalar belgilandi. Loyihaning birinchi bosqichida 26 gektar maydonda 4 mingdan ortiq turar joylar, shuningdek, savdo va xizmat ko'rsatish obyektlarini

qurish rejalashtirilgan. Shundan so'ng, viloyat rahbari Termiz tumanidagi Sharof Rashidov hamda "Quyoshli yurt" mahallalarida "Taraqqiyot va yetakchilik maskani" dasturi doirasida amalga oshirilishi ko'zda tutilgan loyihalar taqdimoti bilan tanishib, infratuzilmani yanada yaxshilash, aholi farovonligini oshirishga qaratilgan ishlar samaradorligini ta'minlash bo'yicha tegishli vazifalarni belgilab berdi.

"Surxon tongi"

Chunki kimningdir otasi, yana kimlarningdir onasi ham xorijda — ishlash uchun ketishgan. Bu esa bolajonlar ko'nglini biroz xira

farzandlarini qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri ekanligini alohida ta'kidlab, bolajonlarni bayram bilan samimiy

boshlanguvchi senariyga o'zgartirish kiritilganmi yoki bolajonlar ko'proq she'r yod olishganmi, bu galgi bayramda Nodirbek "Chang'i", Shukrona esa "Yangi

E'TIBOR VA EHTIROM

bo'ldi. Bu holat meni ertaklar olamiga tushirib qo'ygandek bo'ldi. Dadam qo'ng'iroq qilib, "Senga Qorbobodan sovg'a jo'nataman" degan edilar. Bugun shu sovg'ani qabul qilib olib, juda quvondim. Bu kun men uchun unutilmas kun bo'ldi. Bolajonlarning ko'zlaridagi ishonch va umid, xursandchilik, qolaversa, sahnaga chiqib nimalarga qodir ekanini namoyon etishayotganini ko'rib, ota-onalarning vatandan uzoqda ishlab topayotgan har bir so'mi to'g'ri yo'nalganini, bu mablag' kelajakka sarmoya bo'lib tikilganini anglash mumkin. Bu esa yoshlarimiz taqdiriga befarq emaslik hissi har



Albatta, yangi yil ko'ngil xotirjamligi, oila davrasida, yaqinlar diydorlashuvi bilan yanada fayzli va unutilmas. Ba'zi kattalar mana shunday kunlarda farzandlarining yonida bo'la olmaganini uchun o'zlarini aybdor sezishlari aniq.

UNUTILMAS KUN BO'LDI

qilishi mumkin. Ota-onalarning farzandlari taqdiri, oilasining yanada farovonlashishi uchun qilgan bunday qarorlari, albatta, vaqtinchalik. Bir muddatlik ayriqlik esa hech kimni xafa qilmasligi lozim. Ayni jihatlarni hisobga olgan holda Termiz shahridagi tantanalar majmuasida "Xorijdagi vatanandoshlarimiz oilalari doimiy e'tiborida" shiori ostida xayriya va ko'ngilochar bayram tadbiri tashkil etildi. Tadbirda viloyat hokimining birinchi o'rinbosari Sherzod Rajabov so'zga chiqib, mehnat migrantlari va ularning oilalari, ayniqsa,

qutladi. Shundan so'ng, bayram tadbiri doirasida bolajonlar uchun rang-barang madaniy-ko'ngilochar chiqishlar va konsert dasturlari namoyish etildi. Sahnaga bolajonlar taklif etilib, ular bilan qiziqarli shartlar bajarildi. Bolajonlar orasida Bahrom ingliz tilida o'zini tanishtirdi, kichikintoy Muhammadalining uyatchanligi esa onasi uchun katta sinov bo'ldi. Onajon farzandi uchun hammadan ko'proq tez aytilish aytilishiga to'g'ri keldi. Har yilgi "Qorbobomiz oppoq..." deb

yil" haqidagi she'rlarni o'qishdi. Otajon esa yosh bo'lishiga qaramay, rus tilida ravon tilda she'r o'qidiki, barchaning olqishlari bilan tasannolar aytili. Yana kimdir qo'shiq, kimlardir raqsga tushdi. Jarayonni kuzatish esa har bir tomoshabing zavqli va maroqli bo'ldi. Albatta, bunday sa'y-harakatlar besamar ketmadi. Har bir bolaga Yangi yil sovg'alari ulashilib, ularga ko'tarinki bayramona kayfiyat bag'ishlandi. — Bugungi bayram juda ajoyib o'tdi, — deydi oltinsoylik, 6 yoshli Tohir Raimqulov. — Hammasidan yoqqani Qorbobolarning kirib kelishi



bir ota-onani o'ylantirib, bu yo'lda tinim bilishmayotganini ko'rsatadi.

Sayora ALLAYEVA

"TAQDIRIMIZ YORUG', ERTAMIZ NURLI"



Bu qanday hiski, yoqimli, farahbaxsh va ezgu maqsadlarga boshlovchi qudratga ega. Ha, bu Vatanga bo'lgan, tug'ilib o'sgan maskanga bo'lgan muhabbat hissi, vatanparvarlik tuyg'usi. Qalblarimizda ana shunday tuyg'ular tug'yon urar ekan, biz eng to'g'ri yo'ldamiz. Davlatimiz, xalqimiz taqdiri yorug',



ertasi nurlil, kelajagi porloq... O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 34 yilligi munosabati bilan harbiy

qism va kuch tuzilmalari ishtirokida bo'lib o'tgan ko'rgazmali saf yurishini kuzatgan, ularga qo'shilgan yosh borki, ko'ngillarini

davomida jangovar hamda maxsus tayyorgarlik chiqishlari namoyish etilib, shaxsiy tarkibning yuksak jismoniy va kasbiy

ARMIYA VA BIZ

Egnida harbiylik libosini kiygancha, safda mag'rur ketayotgan o'g'lonlarni ko'rgan borki, havas ila boqadi. Sportda g'olib atletning davlat bayrog'i sarbaland ko'tarilib, madhiyasi yangraganda-chi, yurak allanechuk faxr-u iftixorga to'lajak.

yuqorida aytganimiz kabi hislar egallagani yuz-ko'zlarida zohir bo'ldi. Bayram tadbiri

salohiyati yaqqol ko'z-ko'z bo'ldi. Shuningdek, tadbirga jalb etilgan yoshlarning ishtiroki vatanparvarlik ruhini mustahkamlash, ularda milliy armiyamizga bo'lgan faxr va iftixor tuyg'ularini yuksaltirishga xizmat qildi.

Mazkur tadbirda viloyat musiqali drama teatri ijodkorlari tomonidan Amir Temur siymosi gavdalantirilib, teatrlashtirilgan konsert dasturi namoyish etildi.

S.NORMURODOVA

DOLZARB MAVZU

USTUVOR OLTI YO'NALISH

Ra'no SALOMOVA,
Xalq deputatlari
viloyat kengashi
deputati



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis va xalqimizga yo'llagan navbatdagi Murojaatnomasi mamlakat taraqqiyotining yaqin va o'rta muddatli istiqbolini belgilab bergan muhim siyosiy-dasturiy hujjat sifatida tarixga kirdi.

Murojaatnoma xalq bilan ochiq muloqot, javobgarlik va aniq natijaga qaratilgan davlat boshqaruvi tamoyillarini yanada mustahkamladi. Unda jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab olgan 6 ta ustuvor yo'nalish belgilab berildi.

Mazkur yo'nalishlar davlat boshqaruvi, iqtisodiy taraqqiyot, ijtimoiy soha, ta'lim-tarbiya, raqamlashtirish hamda qonun ustuvorligini ta'minlash kabi hayotiy muhim masalalarni o'z ichiga oladi.

Prezident Murojaatnomasida inson qadrini ulug'lash, aholining turmush sifati va ijtimoiy himoyasini kuchaytirish ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Bu yo'nalish davlat siyosatida "inson – jamiyat – davlat" tamoyilining ahamiyatini yana bir bor tasdiqladi.

Aholining ijtimoiy ehtiyojmand qatlamlarini qo'llab-quvvatlash, xotin-qizlar va yoshlar masalalari, ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlarining sifati oshirish orqali jamiyatda ijtimoiy barqarorlik ta'minlanmoqda.

Yangicha iqtisodiy fikrlash, xususiy sektorni rivojlantirish, kichik biznes va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash orqali aholi bandligini ta'minlash asosiy maqsad etib qo'yildi. Bu borada mahalliy Kengash deputatlari zimmasiga yangi ish o'rinlari yaratilishi, investitsiya loyihalarining joylarda samarali amalga oshirilishi ustidan deputatlik nazoratini kuchaytirish vazifasi yuklatilmoqda.

Prezident Murojaatnomasida belgilab berilgan har bir yo'nalish O'zbekiston taraqqiyotining mustahkam poydevorini yaratadi. Ushbu yo'nalishlar nafaqat davlat idoralari, balki deputatlar, jamoatchilik va har bir fuqaro uchun aniq vazifalarni belgilab beradi.

Biz, xalq vakillari sifatida, ushbu strategik vazifalarning joylarda to'liq va samarali ijrosini ta'minlashga bor kuch-g'ayratimizni safarbar etishimiz lozim. Zotan, Prezident belgilab bergan yo'l — xalq farovonligi va mamlakat ravnaqiga olib boradigan eng to'g'ri yo'ldir.

pedagogika yo'nalishida zamonaviy ta'lim dasturlarini joriy etish, raqamli pedagogika va innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish orqali inson kapitali sifatini oshirish ko'zda tutilmoqda. Bu vazifalarni bajarishda ta'lim muassasalari rahbarlari va deputatlarining hamkorligi muhim ahamiyatga ega.

Murojaatnomada raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni joriy etish iqtisodiy va ijtimoiy sohalarida samaradorlikni oshirishning muhim omili sifatida belgilab berildi. Davlat xizmatlari, ta'lim, tibbiyot va boshqa sohalarida raqamlashtirish orqali ochiqlik va shaffoflik ta'minlanmoqda. Bu jarayon fuqarolarning davlatga bo'lgan ishonchini mustahkamlab, byurokratik to'siqlarni kamaytirishga xizmat qiladi. Shuningdek, faol fuqarolik jamiyatini shakllantirish va davlat boshqaruvida hisobdorlikni oshirishga ham alohida e'tibor qaratilgan.

Prezident Murojaatnomasida har bir rahbar va mansabdor shaxsdan xalq oldida mas'uliyatni talab qiladi. Deputat sifatida joylarda aholi bilan ochiq muloqot olib borish, murojaatlarni hal etish va muammolarni qonun doirasida bartaraf etish — ushbu ustuvor yo'nalishning amaliy ifodasidir.

Prezident Murojaatnomasida belgilab berilgan har bir yo'nalish O'zbekiston taraqqiyotining mustahkam poydevorini yaratadi. Ushbu yo'nalishlar nafaqat davlat idoralari, balki deputatlar, jamoatchilik va har bir fuqaro uchun aniq vazifalarni belgilab beradi.

Biz, xalq vakillari sifatida, ushbu strategik vazifalarning joylarda to'liq va samarali ijrosini ta'minlashga bor kuch-g'ayratimizni safarbar etishimiz lozim. Zotan, Prezident belgilab bergan yo'l — xalq farovonligi va mamlakat ravnaqiga olib boradigan eng to'g'ri yo'ldir.

ISTIHOLA QILINMAYDI, QAT'IIY TALAB QO'YILADI

Har bir yilning o'z hisobi va tahlili bor. Prezidentimiz ham mamlakatimizda o'tgan 2025-yilda amalga oshirilgan ishlar yuzasidan murojaatnomasini Oliy Majlis va xalqimizga yo'lladilarki, unda yil sarhisobi bilan bir qatorda kelgusida rejalashtirilgan 6 ta ustuvor vazifa ham aks etadi.



DEPUTAT MINBARI

Shuningdek, Murojaatnomada bugunning dolzarb mavzusi hisoblangan davlat boshqaruvi tizimini tubdan isloh qilishga alohida e'tibor qaratilgan. Unda mahalliy darajada vakolatlarni qayta taqsimlash, hokimiyat organlari mas'uliyatini oshirish va mahalliy kengashlar rolini kuchaytirishni ustuvor vazifa sifatida belgilab berildi. Jumladan, Murojaatnomada: mahalliy kengashlarning nazorat vakolatlarini kengaytirish, hokimlarning kengash oldida hisobdorligini kuchaytirish, markazdan joylarga vakolatlarni o'tkazish orqali hududlarning mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatlarini oshirish, davlat boshqaruvida ochiqlik va jamoatchilik ishtirokini ta'minlash kabi muhim yo'nalishtirishlar surildi. Bu o'zgarishlar natijasida mahalliy

kengashlar faqat rasmiy organ emas, balki haqiqiy xalq vakili sifatida faoliyat yuritishi, hokimiyat esa qaror qabul qilishda aholi fikrini inobatga olishi kerakligi ta'kidlandi. Ana shunday muhim taklif va uning ijrosi sifatida, respublikamizdagi barcha tuman va shaharlarda deputatlar orasidan mahalliy kengashlarga rais saylandi. Bu jarayon aslida 2025-yilda viloyatlar va Toshkent shahrida joriy etilgan bo'lib, bu holat endi joylarda, xususan, hokimiyatning bo'linish prinsipi shahar va tumanlar darajasida ham rasman qaror topdi. Aynan 2023-yil 30-aprelda qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning XXI bobi "Mahalliy davlat hokimiyati asoslari. Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari" deb nomlanib, unda Kengash raisining faoliyat tartibi batafsil izohlangan. Xususan, Bosh Qomusimizning

120-moddasiga ko'ra viloyat, tuman, shahar hokimi lavozimini egallab turgan shaxs bir vaqtning o'zida xalq deputatlari Kengashining raisi lavozimini egallashi mumkin emas. Shu sabab ham o'tgan 2025-yilning 29-30-dekabr kunlari butun respublikamizda, jumladan, viloyatimizdagi 14 ta tuman, bitta shaharda Xalq deputatlari mahalliy kengashlar sessiyalari o'tkazilib, deputatlar orasidan kengash raislari belgilangan tartib asosida saylandi. Buning natijasida: — birinchidan, mahalliy darajada, quyi bo'g'ida demokratiyaning muhim talabi bo'lmish hokimiyatlar bo'linish prinsipi amalidagi ijrosi ta'minlandi; — ikkinchidan, joylarda ijro (hokim) va vakillik (Kengash) organlari o'rtasida "bir-birini tiyib turish" mexanizmi amalda ishlaydi. Bu esa hokimlarning xalq vakillari oldidagi mas'uliyatini

oshirishga olib keladi; — uchinchidan, endi deputatlar o'z saylovchilarini qiyinab turgan muammolar yuzasidan, ijro organiga "istihola" qilmasdan, ya'ni bemalol talab qo'yadi; — to'rtinchidan, saylovchilarning Kengash va o'z deputatiga nisbatan ishonchi ortadi; — beshinchidan, xalq manfaatlarini to'liq ta'minlashga, hokimliklar faoliyatini ustidan Kengashlar va jamoatchilik nazoratini kuchaytirishga asos yaratildi. Demak, mahalliy darajada davlat hokimiyatini transformatsiya qilish, zam ma'noda, xalqchil tizimni joriy etishga qaratilgan muhim siyosiy islohotlar bardavom bo'lib, respublika mahalliy boshqaruvi tarixida birinchi marta mahalliy davlat hokimiyati

organlari faoliyatini yangi model — "Kuchli Kengash, hisobdor va tashabbuskor hokim" tamoyili asosida isloh qilish ishlari qat'iy kuchga kirdi. Shu tariqa, 2026-yil 1-yanvardan boshlab kengashlarga hokimlarning raislik qilishi tuman, shahar darajasida ham barham topdi. Senat axborotiga ko'ra, 2025-yilning 29-30-dekabr kunlari xalq deputatlari tuman (shahar) kengashi raisi etib saylanganlarning 31 nafari ayollar (14,9 foiz), 18 nafari boshqa millat vakillari (8,5 foiz), 203 nafari oliy ma'lumotli (97,5 foiz), 21 nafari davlat mukofotlari bilan taqdirlangan (10 foiz), 8 nafari ilmiy daraja va unvonga ega (4 foiz). Bu raqamlar mamlakatimizda amalga oshirilayotgan

keng ko'lami ishlarda ayollar o'rni, gender tenglik tamoyili va albatta, siyosiy jarayonlarning hayotga nechog'lik tatbiq etilayotganligidan dalolatdir. Xulosa qilib aytganda, hokimiyat — ijro etuvchi, mahalliy kengashlar esa nazorat va vakillik qiluvchi organ sifatida davlat boshqaruvida o'zaro muvozanatni ta'minlaydi. Prezident murojaatnomasida belgilanganidek, islohotlar ushbu muvozanatni yanada mustahkamlab, demokratik boshqaruvi yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi. **Dilbar NORMURODOVA,** Xalq deputatlari Termiz shahar Kengashi raisi

MULOHAZA

Bugungi globallashuv va keskin raqobat muhitida O'zbekiston iqtisodiy, texnologik va innovatsion rivojlanishning yangi bosqichiga qat'iy qadam qo'yimoqda. Yalpi ichki mahsulot hajmining tarixiy jihatdan ilk bor 145 milliard AQSH dollaridan oshgani, eksport salohiyatining sezilarli kengaygani, xorijiy investitsiyalar hajmining ortgani mamlakatda olib borilayotgan ochiq va pragmatik iqtisodiy siyosatning samaradorligini ko'rsatadi.

MAHALLA RIVOJLANSA, JAMIYAT YUKSALADI

Ayniqsa, ilm-fan yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy etish, yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ulushini oshirish, raqamli iqtisodiyot va sun'iy intellektga asoslangan sohalarni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangan strategik ahamiyat kasb etmoqda. Hozirgi globallashuv sharoitida davlatlarning barqaror rivojlanishi ijtimoiy institutlar samaradorligi bilan bevosita bog'liqdir. O'zbekistonda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar natijasida jamiyat hayotining barcha sohalarida tub o'zgarishlar yuz bermoqda. Ushbu jarayonda Prezidentimizning Oliy Majlis va xalqimizga yo'llagan Murojaatnomalari strategik dasturiy hujjat sifatida alohida ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. "Bugungi kunda jamiyatimizda turli xil fikr va qarashlar bo'lishi tabiiy. Bu demokratiyaning birlamchi talabi. Ammo millati, tili va dinidan qat'ii nazar, 38 millionli el-yurtimizni birlashtiradigan ulug' bir g'oya bor. U ham bo'lsa, Vatan manfaati, xalqimiz manfaatidir. Mana shunday buyuk maqsadga erishishda mahalla tizimining o'rni va ta'siri beqiyos. Chunki mahalla tinch va ahil bo'lsa, jamiyatimiz tinch va hamjihat bo'ladi. Mahalla rivojlansa, butun mamlakatimiz yuksaladi", — dedi prezident o'z nutqida.

2026-yilning O'zbekistonda "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili" deb e'lon qilinishi Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining mantiqiy davomi sifatida namoyon bo'lmoqda. Davlat rahbari tomonidan ilgari surilgan ushbu tashabbus jamiyatni isloh qilishda inson omili, mahalla institutining ijtimoiy kapital sifatidagi o'rni va fuqarolik jamiyatini mustahkamlashga qaratilgan kompleks yondashuvning amaliy ifodasidir. So'nggi yillarda amalga oshirilgan keng ko'lami islohotlar natijasida iqtisodiyot tubdan yangilanib, bozor mexanizmlari mustahkamlandi, ijtimoiy himoya tizimi kengaydi va qonun ustuvorligi hayotiy mezoniga aylandi. Eng muhimi, bu islohotlar bevosita har bir mahalla, har bir xonadon, har bir inson hayotida real natijalar bilan namoyon bo'lmoqda.

Prezident Murojaatnomasida mahalla infratuzilmasini kompleks rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilishi ijtimoiy barqarorlik va adolati rivojlanishning muhim omili sifatida baholanishi lozim. Mahallaning ijtimoiy boshqaruvdagi o'rni kuchaytirilishi, byudjet vakolatlarining joylarga berilishi, kambag'allikni qisqartirishning manzilli mexanizmlarini joriy etish orqali jamiyatni "pastdan yuqoriga" isloh qilish modeli shakllanmoqda. Natijada, millionlab aholi doimiy daromad manbayiga ega bo'lib, kambag'allik darajasi keskin kamaydi, "kambag'allikdan xoli" mahallalar paydo bo'ladi. Ta'lim, fan, sport va yoshlar siyosatidagi yutuqlar Yangi O'zbekistonning inson kapitaliga tayanayotgan taraqqiyot modelini yaqqol ko'rsatmoqda. O'quvchi va talabalarning xalqaro fan olimpiadalaridagi muvaffaqiyatlari, sportchilarimizning jahon miqyosidagi g'alabalari, yurtimizda nufuzli xalqaro musobaqalar va forumlar o'tkazilayotgani mamlakatning global nufuzini mustahkamlamoqda. Shu bilan birga, kasbhunar ta'limi, "dual ta'lim" tizimi va mehnat bozori arxitekturasini yangilash bo'yicha belgilangan vazifalar yoshlarning zamonaviy kasblarini egallashiga va iqtisodiyotning real sektoriga tez integratsiyalashuviga xizmat qilmoqda.

Xulosa o'rinda aytish mumkinki, Prezident Murojaatnomasida belgilangan ustuvor yo'nalishtirish jamiyat va davlat rivojini uyg'unlashtirgan holda, iqtisodiy o'sish, ijtimoiy adolat va inson farovonligini ta'minlashga qaratilgan puxta ilmiy-amaliy asosga ega strategiya ekanini namoyon etadi. "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili" nafaqat navbatdagi siyosiy tashabbus, balki Yangi O'zbekistonning barqaror, innovatsion va ijtimoiy yo'naltirilgan taraqqiyot modelini mustahkamlovchi muhim bosqich sifatida tarixga kirishi shubhasiz.

Husniddin AHMEDOV, Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi
Absalom XO'JANAZAROV, Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti katta o'qituvchisi, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Hech bir davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini aniq statistik ma'lumotlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shu munosabat bilan, o'tkazilishi rejalashtirilgan aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirlari mamlakatimiz uchun tarixiy ahamiyatga ega jarayondir.

BUGUNNING GAPI

Aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish

Birga ro'yxatdan o'tamiz — Birga kelajakni quramiz!

2026-yil 15-yanvardan 28-fevralgacha

- 1-bosqich: 15-31-yanvar kuni
- 2-bosqich: 4-28-fevral kuni

Ro'yxatga olish jarayoni ikki bosqichda tashkil etiladi.

1-bosqichda aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish uchun qishloq xo'jaligi sohasi ham to'liq xatlovdan o'tkaziladi.

RAQAMLAR ANIQ, MA'LUMOT TO'LIQ BO'LADI

Ro'yxatga olishning asosiy bosqichi 2026-yilning 15-yanvardan 28-fevralgacha davom etadi. Bu davr mobaynida nafaqat aholi soni va demografik ko'rsatkichlari, balki respublikamiz iqtisodiyotining ustuvor yo'nalishi bo'lgan qishloq xo'jaligi sohasi ham to'liq xatlovdan o'tkaziladi. Bu jarayon bizga nima beradi? Aholini ro'yxatga olish natijasida hududlarda kimlar yashashi, ularning yoshi, jinsi va ta'lim darajasi haqida aniq raqamlar

paydo bo'ladi. Bu ma'lumotlar kelgusi 10-20 yil ichida qayerda yangi bog'cha, maktab yoki shifoxona qurish keng foydalanish ko'zda tutilgan. Bu inson omilini kamaytirib, ma'lumotlarning haqqoniyligi va tezkorligini ta'minlaydi. Ko'pchilikni o'ylantiradigan muhim jihat — shaxsiy ma'lumotlarning xavfsizligidir. Ta'kidlash joizki, ro'yxatga olish jarayonida olingan barcha ma'lumotlar qat'iy ravishda shaxsiy sir saqlanadi va ulardan faqat umumlashtirilgan statistik maqsadlarda foydalaniladi. Boshlanajak bu muhim tadbirda faol ishtirok etish — har bir fuqaroning o'z kelajagiga va farzandlari farovonligiga qo'shgan hissasidir. Zero, aniq raqamlar — to'g'ri qarorlar va farovon turmush asosidir.

IFTIXOR
14-yanvar — Vatan himoyachilari kuni O'zbekistonning zamonaviy davlatchiligi va mustaqilligi tarixida muhim ahamiyatga ega sanalardan. Bu kun Vatan osoyishtaligi, xalqimiz tinchligi va hududiy yaxlitligini ta'minlash yo'lida fidokorona xizmat qilayotgan harbiy xizmatчилarga bo'lgan yuksak hurmat va e'tirof ifodasidir.

VATANNI SEVMOQ — OTA MEROSDIR, MARDLARGA XOSDIR

Bugungi kunda dunyoda kechayotgan murakkab siyosiy jarayonlar, xavfsizlikka tahdidlar har bir davlatdan kuchli va zamonaviy armiyaga ega bo'lishni talab etmoqda. Shu jihatdan, O'zbekistonda milliy armiyani mustahkamlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishtirishidir. "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi ham o'z dasturida armiyani nafaqat harbiy kuch, balki jamiyat barqarorligi va taraqqiyotining muhim omili sifatida baholaydi. Partiya dasturida ta'kidlanganidek, kuchli armiya — bu faqat zamonaviy qurol-yarog' bilan jihozlangan tuzilma emas, balki yuksak ma'naviyatga ega, milliy qadriyatlarga sodiq, Vatan taqdiriga befarq bo'lmagan harbiy xizmatchilar timsolidir. Aynan shunday armiya xalq ishonchini qozonadi va davlat mustaqilligini ishonchli himoya qiladi. So'nggi yillarda Qurolli Kuchlarimizni rivojlantirish borasida amalga oshirilgan keng ko'lami islohotlar armiyamizning jangovar tayyorgarligi va nufuzini sezilarli darajada oshirdi. Harbiy ta'lim muassasalarining zamonaviylashtirilishi, professional kadrlar tayyorlash tizimining takomillashuvi, harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari uchun yaratilayotgan munosib

Xalqning xohish-irodasini ifoda etishda davlat va nodavlat tashkilotlarining o'rni tobora ortib borayotganligi sir emas.

MAS'ULIYATLI 7 YIL

Jamiyat hayotida yuz berayotgan ana shunday muhim jarayonlar bundan yetti yil avval — O'zbekiston Ekologik partiyasi tashkil etilishiga asos bo'ldi. Qisqa tarixiy davrda partiya mamlakatimiz siyosiy maydonida o'ziga xos va mustahkam o'rinni egalladi. Bugun ekologik muammolar nafaqat alohida mamlakatlar, balki butun dunyo hamjamiyati uchun eng dolzarb masalalardan biridir. Atrof-muhitning ifloslanishi, tabiiy resurslardan noo'rin foydalanish, iqlim o'zgarishi kabi muammolar ekologiya va tabiatni muhofaza qilish sohasida yagona siyosiy kuch sifatida harakat qilishni taqozo etdi. Bugungi kunda O'zbekiston Ekologik partiyasi safida Surxondaryo viloyatidan 73 168 nafar a'zo birlashgan bo'lib, shundan 33 818 nafari ayollar, 10 602 nafari yoshlarni tashkil etadi. Viloyat bo'yab partiya faoliyati 761 ta boshlang'ich partiya tashkilotlari orqali olib borilmoqda. Partiya qisqa vaqt ichida ko'pmingsonli tarafdorlar xohish-irodasini ifoda etuvchi siyosiy kuchga aylandi. Ayni paytda partiya "Tabiat uchun birlashaylik" shiori ostida xalqimiz, kelgusi avlodning qulay va sog'lom muhitda yashash huquqini ta'minlash, ekologik barqarorlikka erishish hamda aholi salomatligini muhofaza qilish yo'lida izchil faoliyat olib bormoqda. Partiya ekologik muammolarni hal etishda jamiyatni ijtimoiy guruhlariga ajratmagan holda barcha kuch va salohiyatni birlashtirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Faoliyati davomida atrof-muhitni

muhofaza qilish, dolzarb ekologik masalalarga yechim topish, yoshlarning ekologik madaniyatini yuksaltirish, fuqarolarda tabiatga daxldorlik hissini kuchaytirish, barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish yo'lida ko'plab amaliy tashabbuslarni ilgari surib kelmoqda. Shuningdek, ekologik huquqbuzarliklarning oldini olish, tabiatni asrash borasida masalalari ham partiya faoliyatining ustuvor yo'nalishtirishidir. Ushbu amaliy ishlar negizida hududiy partiya tashkilotlarining ham hissasi salmoqli, albatta. Xususan, partiya dasturiy maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda targ'ibot tadbirlari, ekologik aksiyalar, hasharlar tashkil etildi. Aholidan kelib tushgan murojaatlar tizimli ravishda o'rganilib, ularning ijobiy hal etilishiga erishildi. Aholining ekologik ongi va madaniyatini yuksaltirish maqsadida viloyat bo'yicha 500 dan ortiq targ'ibot tadbirlari, ekologik sanalarga bag'ishlangan keng qamrovli uchrashuvlar o'tkazildi. Kelgusida ham partiya sog'lom muhit, toza tabiat va barqaror taraqqiyot yo'lida o'z faoliyatini izchil davom ettiradi.

Bekzod TURDIYEV, O'zbekiston Ekologik partiyasi Termiz shahar Kengashi raisi

Ulug'bek XO'JAQULOV, "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi viloyat Kengashi raisi o'rinbosari

“QORAQIR” DAN BIR O‘TING...



Angor tumani markazidan kelishda katta yo‘l bo‘ylab chapga qayrilib biroz yursangiz, “Qoraqir” dashtlariga duch kelasiz. Yantoq va tikondan boshqa giyoh o‘smaydigan, do‘nglik va ikki yon tarafi adirlikdan iborat bu keng maydon necha yillarki, huvillab yotibdi.



To‘g‘ri, bundan 15 yillarcha avval bu do‘ngliklarda 10-15 yoshli qarag‘ay archalari bo‘lardi. O‘sha yillari qish qattiq kelganligi bois, qarag‘aylar qurib qolganidan buyon bu adirliklarda dov-daraxtdan nishona ham yo‘q edi. Har gal ushbu hududdan o‘tarkansiz, xayolingizda yashil bog‘ orzusi jonlangandek bo‘ladi. Bu adirlar ham qachonlardir ko‘zlarimizni quvontiruvchi, tabiatga go‘zallik hadya etuvchi bog‘-rog‘larga aylanamikan deya o‘ylay boshlaysiz. Albatta, bu hol endilikda o‘tmishda qoladigan bo‘ladi. Endi bu adirlar yaqin yillar ichida gul-u gulzorlarga aylanadi. Kelgusida ushbu quruq cho‘l-adirlar — o‘tgan kishi borki, dov-daraxtlarning soyasida birpas soylasam deya havas qiladigan darajada obod go‘shaga aylanadi. Ayni paytda ushbu dashtlarni obodonlashtirish,

yo‘ning ikki tarafidagi adirliklarda yashil belbog‘ — bog‘-rog‘ yaratish ishlari izchil davom ettirilmoqda. Bu ishlarga o‘nlab-yuzlab mutaxassislar jalb etilgan. Prezidentimizning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida: “Deputatlarga o‘z okrugidagi muammolarni hal etish uchun 500 milliard so‘m, har bir deputatga 3,3 milliard so‘mdan beryapimiz. Bu borada “yashil hudud”, “yashil bog‘” yaratish bo‘yicha har bir deputatning tashabbusiga qo‘shimcha 330 million so‘mdan yo‘naltiramiz. Bunday yondashuv orqali 2030-yilgacha barcha tumanlardagi mahallalarga Yangi O‘zbekiston qiyofasini olib kiramiz”, degan fikrlari o‘z isbotini topmoqda. Bugungi kunda yurtimizni bog‘-rog‘larga aylantirish kun tartibidagi asosiy masalalardan biriga aylangan desak, xato bo‘lmaydi.

Qurg‘oqchilik va ob-havoning ifloslanish jarayoni tezlashayotgan bugungi kunda “Yashil makon” umummilliy loyihasining amalga oshirilayotganligi ayni muddao bo‘lmoqda. Negaki, davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan bu kabi xayrii tadbirlar aholi tafakkurida ham o‘ziga xos ijobiy o‘zgarish yasamoqda. Aholida tasavvurida, yo‘l bo‘ylari, bo‘sh yotgan yerlarga ko‘chat ekib, bog‘-u bo‘ston yaratish istagi kurtak yozmoqda. Jumladan, Angor tumanida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida ko‘chat ekish ishlari izchillik bilan davom ettirilmoqda. Bunday yondashuv orqali 2030-yilgacha barcha tumanlardagi mahallalarga Yangi O‘zbekiston qiyofasini olib kiramiz”, degan fikrlari o‘z isbotini topmoqda. Bugungi kunda yurtimizni bog‘-rog‘larga aylantirish kun tartibidagi asosiy masalalardan biriga aylangan desak, xato bo‘lmaydi.

muhit yaratishga qaratilgan. Har qanday ulkan islohotlar xalq kuchi va davlat salohiyati orqali amalga oshiriladi. Bu jarayonda korxonalar va tashkilotlarning ishtiroki juda muhim rol o‘ynaydi. Surxondaryo viloyati hokimligi tashabbusi bilan Angor tumani “Qoraqir” massivida amalga oshirilayotgan ko‘kalamzorlashtirish ishlari bugun muhim bosqichga yetdi. Tap-taqir, toshloq va gipsli sahro hududi to‘liq tayyor holatga keltirildi va keng ko‘lamli yashil loyiha amaliy bosqichga o‘tdi. Bugun “Qoraqir” massivida yer maydonlari maxsus texnikalar yordamida yumshatilib, ko‘chat ekish uchun tayyor holga keltirildi. Massiv hududidan metan gaz quyish shoxobchalari egalari maxsus yer maydoni ajratilib, daraxt ko‘chatlarini yetishtirish va parvarishlash bo‘yicha aniq topshiriqlar berildi.

Hududni barqaror sug‘orish maqsadida massivning tepa qismida 2 ta sun‘iy hovuz barpo etilishi belgilandi va shu orqali tomchilatib hamda yomg‘irli sug‘orish tizimi yo‘lga qo‘yiladi. Ushbu ulkan ekologik tadbirda Surxondaryo viloyati hokimi Ulug‘bek Qosimov ham bevosita ishtirok etib, daraxt ko‘chatlari ekdi. Bu loyiha davlat rahbarining e‘tiborida ekanligi, ekologiya masalasi ustuvor yo‘nalish sifatida qaralayotganining yorqin ifodasidir. Loyiha doirasida 104 gektar maydonda 300 mingga yaqin manzarali daraxt ko‘chatlari ekilishi rejalashtirilgan. Bu o‘ddiy ko‘kalamzorlashtirish emas — bu shamol va changdan himoyalovchi “yashil qalqon”, hudud iqlimini yumshatuvchi tabiiy yo‘l, kelajak avlod uchun sog‘lom ekologik muhit yaratishga qaratilgan uzoq muddatli va mas‘uliyatli loyihadir.

— Bugun sahro bag‘rida boshlangan bu ishlar ertaga “Qoraqir”ni yam-yashil, obod va chiroyli maskanga aylantiradi. Bu tashabbus — davlat, jamoatchilik va tadbirkorlik mas‘uliyatining uyg‘unlashgan namunasi, — deydi viloyat Ekologiya va iqlim o‘zgarishi boshqarmasi matbuot kotibi Temur G‘oyibnazarov. Ko‘chat ekish — ham tabiat, ham inson salomatligi va iqtisodiyot uchun juda ko‘p afzalliklarga ega bo‘lgan ezgu amaldir. Ayniqsa, cho‘l joylarda ko‘chat ekish va yashil hududlar barpo etish global ekologik muammolarni hal qilishda o‘ta muhim strategik ahamiyatga ega. Xalqimizda: “Yaxshidan bog‘ qoladi” degan naql bor. Ekilgan har bir tup ko‘chat yillar davomida tabiatga ko‘rk berib, kelajak avlodlarga boy tabiiy meros o‘laroq xizmat qiladi. Ko‘chat ekish tadbiri bugungi kunimiz va kelajak



avlod uchun qilingan eng yaxshi tashabbuslardan biridir. Zero, bugun sanoat korxonalarini chiqarayotgan zararli havoni tozalashda daraxtlar beqiyos kuchga ega. Shuningdek, o‘simlik dunyosi iqlimni mo‘tadillashtirishi, jazirama issiqda havo haroratini nisbatan pasaytirishi, biologik xilma-xillikni ta‘minlashi, tuproq yemirilishi va chang to‘zonlar, sahrolanishning oldini olishi bilan ham ahamiyatlidir. Xulosa qilib aytganda, cho‘lda ekilgan har bir ko‘chat nafaqat tabiatni asrash, balki kelajakdagi ekologik halokatlarning oldini olishga beminnat xizmat qiladi.

Xolmuhammad TOG‘AYMURODOV



“YOMON OTGA MING QAMCHI”

Donishmandlarning bir gapi bor: “Yaxshi otga bir qamchi, yomon otga ming qamchi!” Ayniqsa, bu gap Elbekka (ismlar o‘zgartirilgan) o‘xshagan yigitlarga topib aytilgan bo‘lsa, ne ajab. Bu Elbek degani bundan sakkiz yil ilgari yomon yo‘lga kirib qolgan o‘zi tengilarning jamoasiga ko‘ngillilardan bo‘lib qo‘shilib, ko‘pgina buzg‘unchi ishlarda qatnashib, “malakasi”ni oshirib oldi.

To‘daboshiga quloq solib, mayda-chuyda ishlarni qilib, topganini o‘rtada bo‘lishshdi. Nimagadir bu qiliqlari unga yoqin qiramay, o‘zi alohida bo‘lib chiqib, boyish yo‘lini axtardi. Topdi ham. U bir kuni bir o‘zi yo‘l chetidagi o‘rindiqa o‘tirib, cho‘ntadigan tamaki chiqarib tutatib turganida, yoniga tengsur bir yigit kelib o‘tirdi-da, bir dona tamaki so‘radi. U ham tutatib, gaplari gaplariga qovushib, yo‘lni narigi betidagi choyxonaga borishib, u-bu buyurtma qilishdi, ancha vaqt gaplashib o‘tirdi. Shu tarzda ular tez-tez uchrashadigan bo‘lib qoldi. Yusufga shogird tushib, Elbek puldor bo‘lib qoldi. Ularni savdo-sotig‘i pana-pana joylarda, ko‘pincha kechasi bajariladigan bo‘ladi. Qanchalik yashirinmasin, baribir qo‘lga tushdi. “Qora dori” bilan ushlanib, uzoq muddatli qamoq jazosiga tortildi. Elbekni qamoqdan chiqib kelib tinch yursa kerak deganlar biroz yangilishdi. To‘g‘ri-da, chunki u qamalayotgan chog‘i sud zalida “pushaymonman, adashdim, meni kechiringerlar” deya qayta-qayta takrorlagandi-da. Elbekboy “zona”dan chiqib kelgach, o‘zini ancha muloyim ko‘rsatdi. Biron ishga kirib tinchgina ishlayman, dedi

NAHOTKI?! uydagilariga. Yo‘q, unday bo‘lmadi. “O‘rgangan ko‘ngil o‘rtansa qo‘ymas” deganlaridek, Elbekboy ham ishga ketyapman deb ko‘chaga chiqib gumashtalarini axtardi. Topdi ham. Eski ishini boshlab yubordi. Undan ko‘plab xabar ham topganday bo‘ladi. Bir kuni hech joyda ishlamaydigan sinfdoshi Bo‘rivoy, Elbekka telefon qildi, xaridor bor deb. Ular uchrashib ham olishdi. Bo‘rivoy haligi “mijoz” bo‘lmish Bahrom bilan Elbekni gaplashtirib qo‘ydi. Ertasi kuni Elbekka Bahrom shahardan chetroqda turibman, shu tomonga olib kel, dedi-da aniq manzilini aytdi. Edbek uydagi narsalarini, yana ularni aniq o‘lchaydigan antiqa tarozisini ham qo‘shib oldida Bo‘rivoyni ham chaqirdi. Ikkovlon sotadigan tovarini olib, Bahrom aytgan joyga shamolday yelib bordi. Hammalari Elbekning “Lacetti”sini ichiga o‘tirishib, “tovar”ni tosh-tarozi qilib o‘lchab, mo‘maygina pulni sanab olayotgan ediyamki, mashinaning atrofini begona odamlar o‘rab, o‘zlarini tanishtirgach, jim bo‘lib qolishdi. Bu ikki sinfdoshga “qora dori” qora kunlarni keltirdi va sud hukmi bilan uzoq muddatli jazoga tortildi.

To‘liqin ABDURAIMOV,
JIB Sho‘rchi tuman sud raisi
Chori QORAQULOV,
sud maslahatchisi

URUG‘LIK PAXTA HAMDA SABZAVOT, POLIZ, MOYLI, DUKKAKLI, OZUQA VA BOSHQA EKINLAR URUG‘CHILIGI BILAN SHUG‘ULLANUVCHI SUBYEKTLAR RAHBARLARI DIQQATIGA!

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “Qishloq xo‘jaligi ekinlari urug‘chiligini yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-106-sonli, Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 18-martdagi “Qishloq xo‘jaligi ekinlari urug‘chiligi sohasida “E-urug‘” axborot tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 166-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida 2026-yil hosili uchun paxta va boshqa qishloq xo‘jaligi ekinlari urug‘liklarini yetishtiruvchi subyektlar o‘rtasida joriy yil 15-yanvardan 5-fevralga qadar

“E-urug‘” axborot tizimi orqali tanlov o‘tkaziladi. Tanlovda qatnashish uchun hujjatlar 2026-yil 15-yanvardan — 5-fevralga qadar paxta va boshqa ekinlar urug‘liklarini yetishtirish huquqini qo‘lga kiritish uchun subyektlar o‘rtasida “e-urug‘” (e-seeds) tizimi orqali onlayn ariza qabul qilinadi. **Qo‘shimcha ma‘lumotlar uchun tumanlar qishloq xo‘jaligi bo‘limi shtabi hamda “Urug‘chilikni rivojlantirish markazi” DM viloyat boshqarmasi shtabiga murojaat qilishlari mumkin. Telefonlar: 94 267-09-65, 99 068-45-02.**

Denov tumanida faoliyat yuritayotgan YTT RAXMATULLAYEV KAMOL ISMOILOVICHga tegishli muhr va tamg‘a yo‘qolganligi **MA‘LUM QILINADI.**

TERMIZ DAVLAT MUHANDISLIK VA AGROTEKNOLOGIYALAR UNIVERSITETI QUIYDAGI BO‘SH ISH O‘RINLARI UCHUN PROFESSOR, DOTSENT, KATTA O‘QITUVCHI, O‘QITUVCHI (ASSISTENT) VA O‘QITUVCHI-STAJYOR LAVOZIMLARIGA TANLOV E‘LON QILADI:

KAFEDRALARNING TEGISHLI TA‘LIM YO‘NALISHLARI BO‘YICHA PROFESSOR, DOTSENT, KATTA O‘QITUVCHI, O‘QITUVCHI (ASSISTENT), O‘QITUVCHI-STAJYOR LAVOZIMLARI UCHUN:
— Transport vositalari muhandisligi (turlar bo‘yicha): o‘qituvchi (assistent) 1 nafar.
— Transport logistikasi (avtomobil transporti): katta o‘qituvchi 1 nafar.
— Hayot faoliyati xavsizligi: o‘qituvchi (assistent) 1 nafar.
— Oziq-ovqat texnologiyasi: o‘qituvchi (assistent) 1 nafar.
— Yengil sanoat muhandisligi: dotsent 1 nafar.
— Kimyo muhandisligi: o‘qituvchi (assistent) 1 nafar.
— Kimyo fani bo‘yicha: dotsent 1 nafar, katta o‘qituvchi 1 nafar.
— Arxitektura (turlari bo‘yicha): katta o‘qituvchi 1 nafar, o‘qituvchi (assistent) 1 nafar.
— Qurilish (bino va inshootlarni loyihalash, qurish): o‘qituvchi (assistent) 1 nafar.
— Qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarini ishlab chiqarish: o‘qituvchi (assistent) 1 nafar.
— Yer kadastr va yer tuzish: o‘qituvchi (assistent) 1 nafar.
— Yo‘l muhandisligi (Avtomobil yo‘llarini ekspluatatsiya qilish): katta o‘qituvchi 1 nafar, o‘qituvchi (assistent) 1 nafar.
— Yo‘l muhandisligi (Avtomobil yo‘llarini qurish): o‘qituvchi (assistent) 1 nafar.
— O‘rmonchilik va aholi yashash joylarini ko‘kalamzorlashtirish: o‘qituvchi (assistent) 1 nafar, o‘qituvchi-stajyor 1 nafar.
— Veterinariya meditsinasi: dotsent 1 nafar, o‘qituvchi (assistent) 1 nafar.
— Zootexnika: dotsent 1 nafar, o‘qituvchi (assistent) 1 nafar.
— Agronomiya: o‘qituvchi (assistent) 1 nafar.
— Qishloq xo‘jaligi ekinlari seleksiyasi va urug‘chiligi: katta o‘qituvchi 1 nafar, o‘qituvchi (assistent) 1 nafar.
— Biologiya fani bo‘yicha: katta o‘qituvchi 1 nafar.

— Sabzavotchilik: katta o‘qituvchi 1 nafar, o‘qituvchi (assistent) 1 nafar.
— Iqtisodiyot: katta o‘qituvchi 1 nafar, o‘qituvchi (assistent) 1 nafar.
— Buxgalteriya hisobi: o‘qituvchi (assistent) 1 nafar.
— Menajment: o‘qituvchi (assistent) 1 nafar.
— Moliya va moliyaviy texnologiyalar: o‘qituvchi (assistent) 1 nafar.
— Biznesni boshqarish: katta o‘qituvchi 1 nafar, o‘qituvchi (assistent) 1 nafar.
— Matematika fani bo‘yicha: o‘qituvchi (assistent) 1 nafar.
— Fizika fani bo‘yicha: o‘qituvchi (assistent) 1 nafar.
— Xorijiy til fani bo‘yicha: katta o‘qituvchi 1 nafar, o‘qituvchi (assistent) 1 nafar.
— O‘zbek tilini sohada qo‘llanilishi: katta o‘qituvchi 1 nafar.
— Rus tili fani bo‘yicha: katta o‘qituvchi 1 nafar, o‘qituvchi (assistent) 1 nafar, o‘qituvchi-stajyor 1 nafar.
— Agrokimyo va agrotuproq-shunoslik: dotsent 1 nafar.
— O‘simliklar himoyasi va karantini: katta o‘qituvchi 1 nafar.
— Energetika muhandisligi: dotsent 1 nafar, katta o‘qituvchi 1 nafar, o‘qituvchi (assistent) 1 nafar.
— Qayta tiklanuvchi energiya manbalari: katta o‘qituvchi 1 nafar, o‘qituvchi (assistent) 1 nafar.
— Elektr muhandisligi: o‘qituvchi (assistent) 1 nafar.
Professor lavozimini egallash uchun tanlovda, qoidaga ko‘ra, professor ilmiy unvoniga yoki fan doktori, fan doktori (Doctor of Science) ilmiy darajasiga, shuningdek, tegishli mutaxassislik bo‘yicha xorijiy mamlakatlarning unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga ega bo‘lgan shaxs ishtirok etishi mumkin. Dotsent lavozimini egallash uchun tanlovda, qoidaga ko‘ra, dotsent ilmiy unvoniga, katta ilmiy xodim yoki fan nomzodi, falsafa doktori (PhD), fan doktori yoki fan doktori (Doctor of Science) ilmiy darajasiga, shuningdek, xorijiy mamlakatlarning tegishli mutaxassislik bo‘yicha ularga

tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga ega bo‘lgan shaxs ishtirok etishi mumkin. Katta o‘qituvchi lavozimini egallash uchun tanlovda oliy ma‘lumotga ega bo‘lgan shaxs (magistr, diplomli mutaxassis), shuningdek, ilmiy daraja (shu jumladan, fan nomzodi, tegishli mutaxassislik bo‘yicha xorijiy mamlakatlarning falsafa doktori (PhD) darajasiga yoki unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga) va ilmiy unvonga ega bo‘lgan hamda bunday daraja va unvonga ega bo‘lmagan, biroq o‘qituvchilik, ilmiy-tadqiqot va ishlab chiqarish ishlari tajribasiga ega bo‘lgan shaxslar ham qatnashishi mumkin. O‘qituvchi (assistent), o‘qituvchi-stajyor lavozimini egallash uchun tanlovda tegishli mutaxassislik bo‘yicha oliy ma‘lumotga ega bo‘lgan shaxs (magistr, diplomli mutaxassis) qatnashishi mumkin. **TANLOVDA ISHTIROK ETISH UCHUN NOMZODLAR QUIYDAGI HUJJATLARINI TOPSHIRISHLARI KERAK:**
— Rektor nomiga ariza;
— Pasport nusxasi;
— Ma‘lumotnoma (obyektivka);
— Kadrlarni hisobga olish bo‘yicha shaxsiy varaq;
— Oliy ma‘lumot to‘g‘risidagi diplomlar va ilovalaridan nusxalar, ilmiy daraja, ilmiy unvon, shuningdek, ilmiy ishlar va ixtirolar mavjud bo‘lgan taqdirda, ularga tegishli diplomlar, attestatlar nusxalari va ilmiy ishlar ro‘yxati, malaka oshirish to‘g‘risidagi guvohnomalar. **IZOH:** Hujjatlar matbuotda e‘lon berilgan kundan boshlab bir oy muddatda qabul qilinadi. **Manzil:** Termiz shahri, “Guliston” MFY, I. Karimov ko‘chasi, 288-a uy. Termiz davlat muhandislik va agroteknologiyalar universiteti rektorati, universitet Kengash kotibi. **TERMIZ DAVLAT MUHANDISLIK VA AGROTEKNOLOGIYALAR UNIVERSITETI MA‘MURIYATI**



“Ishonch bilan ayta olamanki, — degan edi akademik shoir G'afur G'ulom, —she'riyatimizga dadil, didli, ravshan va dono ijodkorlar kirib kelmoqda. Ular men boshlagan she'rni davom ettiradi. Yozolmagan satrlarimni yozadi. Xusniddinni yoki Erkinni aytaymi, Tesha Saydaliyevni yoki Hamid Nuriyni tilga olaymi yoki boshqalarni, qisqasi, hammasida kishini o'ziga jalb qiluvchi nimadir bor!” (G'afur G'ulom. Tanlangan asarlar, 2-tom).

G'AFUR G'ULOM NAZARI TUSHGAN SURXONDARYOLIK SHOIR

Ko'rinib turibdiki, otaxon shoirimiz bir guruh salohiyatli ijodkorlar qatorida Tesha Saydaliyev nomini ham alohida mamnuniyat bilan tilga olar ekan, “yozolmagan satrlarimni yozadi” degan bashoratida o'z ishining dono davomchisini ko'ryapti.

Afsuski, shunday katta ishonch yuklangan, jo'shqin kayfiyatli kuychi 1972-yil 13-oktyabrda bir kam qirq yoshida halok bo'ldi. Fojia shu qadar tez yuz berdiki, bu haqdagi xabar uning qo'shiqlari radio orqali yangrab, she'rlari, hamshaharlari to'g'risidagi ocherk, lavhalari gazetalarda ketma-ket chop etilayotgan kunlarga to'g'ri keldi. Shoirning qalami, ish stoli, boshlab qo'ygan she'rlari, mutolaa qilinayotgan kitoblari, asarlarining qahramonlari, muharrirlik qilayotgan gazetasi, xullas, hamma ishlari, hamma tanish kishilari bir lahza og'ir yuk ostida qolgandek bo'ldi. Yo'q, bu yuk, bu ayriqlik yukini bir lahza emas, do'stlari o'z yelkalarida uzoq vaqt titrab tuyib turishdi.

Xalq og'ziga tushish baxtiga musharraf bo'lish hammaga ham muayassar bo'lavermaydi. Ijodkorni o'sha darajaga ko'taradigan kuch uning tug'ma qobiliyatidan tortib, tinimsiz izlanishi-yu tirishqoq mehnati.

Tesha Saydaliyev ijodiy izlanishi boshqa ko'pgina qalam ahli faoliyatida yuz bergandek, maktab partasida boshlandi. Farqi shuki, o'sha maktab o'quvchisining birinchi she'riyoq respublika gazetasida, ko'rinarli sahifada e'lon qilindi, kishining qobiliyati uchun bundan ham katta ishonch bormi?! Ha, uning dastlabki she'ri yoshlar gazetasida chop etilgandi. Bu unga yuqori kayfiyat, jo'shqin ehtiros, g'urur, o'z ishiga ishonch baxsh etganidek, o'quvchilik mas'uliyatini ham yana bir bor oshirdi. Shunday o'qidiki, o'sha yili Termiz shahridagi “Pravda” maktabini “Oltin medal” bilan tamomladi. Alisher Navoiy nomli Samarqand davlat universitetining filologiya fakultetiga o'qishga kirdi.

Shoir eng harorati

asarlarini asosan talabalik yillarida bitdi. Samarqand va uning odamlarini tarannum etgan “Yoshliging”, “Samarqand himmati”, “To'yda”, “Atalgan so'zlar”, “Yonma-yon”, “Bir kun gul g'unchasini taqib o'tding sen” kabi she'rlari-yu “Ajoyib kishilar” turkumi shu yerda yaraldi. U o'quvchilarga birinchi she'rlar to'plami — “Tuhfa”ni shu yerda taqdim etdi. Shoir Yozuvchilar uyushmasi a'zoliciga ham shu yerda qabul qilindi. Chunki, o'smirlik va navqiron umrining asosiy qismi shu yerga to'g'ri keldi. Tahsil olishdan tashqari bu yerda ishladi ham. SamDUni tugatgach, viloyat gazetasida ijodiy xodim bo'lib ishladi. Bu yerda uning ajoyib safozlari, maslahatdoshlari bor edi. D.Fayziy, N.Narzullayev, B.Boyqobilov, X.Karimov, S.Oripov kabi shoirlar, S.Mirzayev, X.Doniyorov, N.Nuriddinov, N.Karimov, S.Shermuhamedov kabi olimlar davrasining faol qatnashchisi bo'ldi. Bu yerdan osonlikcha ko'ngil uzib keta olmadi. Qachonki, ona shahri Termiz uni o'zida ishlashga chaqirganda bu taklifni ham rad eta olmadi. Bu joyni ko'pdan qo'msardi, davralarda tug'ilgan maskani va odamlari bilan faxrlanib, gulgun yonib yurakdan kuylardi:

— Termizdanman,
do'stim...
— Ey eshitganman.
Tuxum pishar emish yoz
issig'idan,
Temirchilar ba'zan
kechib olovdan,
Ishlasharmish quyosh
tig'ida.
— To'g'ri, do'stim,
to'g'ri...
Shahrim havosi
Olovday issiqdir hattoki
tunda.
Chunki mash'al qilib el
muddaosin,
Olov qalblar yashaydi
bunda.

Shoir 60-yillarning boshlarida Termiz shahriga — viloyat gazetasiga ishga keldi. Adabiy harakatchilikni boshlovchilardan biri sifatida yosh ijodkorlarga ko'maklashdi. R.Abdullayeva, M.Safarov, Ch.Yoqubov, A.Hasanov, M.Xanjarov kabi yoshlarning dastlabki asarlarini gazetaga tayyorlab tushira boshladi. Bu himmat esa navnihol boshlovchilarni ijod cho'qqilari tomon ildamlashi uchun tobora rag'batlantirardi. T.Saydaliyev gazetada

ishlash bilan bir vaqtda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi viloyat bo'limiga mas'ul kotiblik vazifasiga tayinlandi. Bu vazifada umrining oxirigacha ishladi. Shoirning asarlari ko'pgina yozuvchilar va adabiyotshunos olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Ular ajoyib ijodkor faoliyatidagi ayrim nuqsonlarni e'tirof etish bilan bir qatorda, uning o'ziga xos fazilatlarini ham alohida ko'rsatib o'tganlar. Shoir N.Narzullayev “Hayot qo'shig'ini aytib...” maqolasida uqtiradi: “Shoir Tesha Saydaliyev ijodida intim lirik she'rlar alohida o'rin tutadi. Bu she'rlarning barchasiga xos fazilat shuki, ularda niyati xolis, muhabbati sof yigit-qizlar kuylanadi. Sevvida hammaga o'rnak bo'lish nidosi yangraydi”. Qarang, bu o'rinda keltirgan misolimizda ham fikrlar lo'nda, tashbehtar sodd va ravon. Bu esa she'rda aniq mazmun ahamiyat kasb etgan:

Ishqim avval bo'lsa
ham uchqun
Harorati jon
edi tanga.
Sirlashdimi senda
o'sha kun
Bu uchqundan
yondi alanga.
Alangaki tolmas
qo'l bilan
Senga bog'lab
qo'ydi dilimni
Shu alanga so'nmas
bir umr,
Yoritadi hayot
yo'limni.

Adabiyotshunos olim Ozod Sharofiddinovan eshitaylik: “Tesha Saydaliyevning ko'pchilik she'rlarida... jo'shqin lirizm kuchli ehtiros va chinakam yoshlik temperamenti bilan qo'shilib ketgan. Bu jihatdan, ayniqsa, uning “Qayna yurak” she'ri diqqatga sazovor. Shoir bu she'rida ham boshqa she'rlaridagi kabi soddalikka intiladi. Murakkab va mavhum metaforalar qidirmaydi, she'rga tumtarok bezak bermaydi. Ammo u shunday jo'shqin va haroratli misralar tuzadiki, ulardagi jo'shqinlik yuksak poetik kayfiyat tug'diradi”:

Senga menmas
vatanim ega,
Qayga desa
boshlaver meni.
Lozim bo'lsa
dushman ustiga
Bomba qilib
otarman seni.
Qayna yurak!
To'iqinlan yurak,
Menga faqat
qaynashing kerak!

O. Sharofiddinov o'z mulohazalarining isboti uchun parchani to'g'ri tanlagan. Umuman olganda, yuqorida keltirilgan ikkala muallifning shoir haqidagi qarashlarida uning o'ziga xos shoir ekanligi mamnuniyat bilan uqtirilyapti.

“Tesha Saydaliyev uchun xos xususiyatlaridan biri shundaki, — deb yozgan edi uning “Tuhfa” she'rlar to'plami haqidagi taqrizida filologiya fanlari doktori M. Yunusov. — U ba'zi yoshlarda uchragani kabi biror munosabat tufayli she'rlar yozmay, o'zini to'liqlantirgan, qattiq hayajonga solgan hodisalarga to'g'risida yozadi”.

Bu bir jihatdan haq gap. Shoir nimasi bilandir nigohini tortgan narsalarni uzoq kuzatadi, tekshiradi: muhim shtrixlarni nomuhimlaridan ajratadi, farq qiladi, mavzuning ahamiyatini aniqlagach, sodd, ixcham bandlarda o'z hissiyotlarini naqshlaydi:

Yangi mehmon keldi
dunyoga, —
Kulib deding:
bo'lsin muborak!
To'lsa hamki
ko'zim ziyoga,
Bu so'zimdanda
qonmadi yurak.
O, Hamshira!
Tug'ilgan o'g'lon, —
O'g'lim otin
qo'yaman Bunyod.
Dunyoga u emasdir
mehmon
Unikidir bu yer,
bu dunyo.

Yuqoridagi mulohazalardan T.Saydaliyev poeziyasi, intim lirika bilan chegaralangan degan xulosa chiqsa xato bo'lur edi. Intim lirika shoir sermahsul ijodining bir qismi, xolos. T.Saydaliyevning jurnalist ekanligi yuqorida eslatib o'tildi: jurnalistika bilan doimo shug'ullanishi kishini o'z zamonadoshlari hayotiga, kundalik voqea-hodisalarga nisbatan hushyorligini oshira bordi, demakki, ularga betaraf qarab turolmaysan, kishi. Ular to'g'risida nimadir, nimalardir yozgung keladi, yozasan ham, eng ma'qullarini matbuotda e'lon qilasan. T.Saydaliyevning ham davr talabi bilan yaratilgan asarlari talaygina. U fazoning zabt etilishiga bafarq qarab turolmaydi. “Men muxbirman” she'rida o'z

burchini quyidagicha his etadi:

Ko'rsam laganbardor
yo tekinxo'rni,
Yoki mavsumida
pishmagan g'o'rni.
Yo birov qul bo'lsa
kibr-u havoga,
Men yengim shimarib
borgum da'voga.

Tesha Saydaliyev ijodining tematikasi mashhur Gyotening “Har bir yozuvchi o'z asarida ma'lum darajada o'zini aks ettiradi” degan dono gapini eslatadi. Binobarin, bu gap ijodi tahlil etilayotgan shoirimizga ham ozmi-ko'pmi xosdir. E'tibor bering. Shoir Termizda tug'ildi. “Termizdanman” she'rini yozdi. Samarqandda tahsil oldi. Samarqand haqidagi qator she'rlarini yozdi. Samarqand haqidagi qator she'rlari bunyodga keldi; umrining asosiy qismi Surxon vodiysida o'tdi. “Surxon sadolari” kitobi yozildi. Bu ajoyib vodiyning odamlari yuragidan joy oldi. Shoir ularga bag'ishlab “Sen o'tgan ko'chalarda”, “Izlar”, “Do'stlarim” kabi she'rlarini yozdi. Va nihoyat gazeta-jurnallar

Yulduzlar ishqiy yonar
har tirik jonda
Ming bir hayratdir,
ming hayajonda.
Bugun ham hayqirar
insonlar.

Agar bu satrlar yuqori pafosda, ko'tarinki nido, aniq bashorat kabi yangrasa, endi quyidagilarga e'tibor beraylik:

Bir kun gul g'unchasin
taqib o'tding sen,
Bir kun hayo bilan boqib
o'tding sen.
Bir kun daryo kabi oqib
o'tding sen,
Har gal ishq gulxanin
yoqib o'tding sen.

Bilmayin qandayin
ko'ygga qoldim men,
Bilay deb o'zimni o'ygga
oldim men
Bu ne deb tunlari o'ygga
toldim men
Qalbinning urushin
kuyga soldim men.


She'r shu xilda davom etadi. Tinglayapsizmi, naqadar tiniq, musiqadav eshitilyapti. Naqadar tiniq eshitilyapti. Bundan tashqari, u ravon ham. Shoirning arxividan “Laylining maktublari” degan qissa

chala qolgan arxivdan Laylining bor-yo'g'i 20 xati topildi.

Muallif asarni bundan keyin qanday tartibda davom ettirmoqchiligi noma'lum. Ma'lumi shuki, “Laylining maktublari”dan birida Majnuning maktublari ham eslatilgan. “Majnuning maktublari” kompozitsion qanday qurilmaga ega bo'lishi kerak edi, bu haqda ham muallifning niyati noma'lum. Ma'lumi shuki, uni Laylining xatlari bilan birlashtirish masalasi ko'ndalang bo'lib turibdi.

Kunim tundur, dilim
xundur,
Darak bo'lmay
javobingdan,
Yo o'rtash zavqi
avlomi,
Bu shaydoj
kavobingdan?

Holimdan gullarim
yig'lar,
Kuyib, bulbullarim
yig'lar.
Bu-ku men, Tog'
cho'kib ketgay,
Ravo ko'rgan
azobingdan...



ham uning kurra tezligida charx urayotgan xayolini jalb qildi. “Fazogir Vatan”, “Shodiyoona”, “Ko'zlarimga yo'lmas uyqu” asarlari shu boisdan dunyoga keldi. Bular, ayrimlarining nuqsonlarini hisobga olmasak, badiiy jihatdan ham chakki yozilmagan: satrlar ravon, fikrlar esa lo'nda. Qofiyalar yangi va haroratli:

Yuraklardan oqdi
sevinchlar daryo,
Shodlik to'iqinida
chayqaldi dunyo.
Fazoda qiz uchdi
Tushmi yo ro'yo,
Bundayni ko'rmagan
zamonlar,
Zamonlar zamon
bizning zamonda.

qo'lyozmaligicha topildi. Buning ustiga u hali tugallanmagan ekan. Ayrim boblarini gazetxonlarga taqdim etgan viloyat gazetasining sharhlab yozishicha, shoir bu asarni yozishga astoydil kirishgan. Ijodda o'ziga ma'lum darajada malaka, tajriba paydo bo'lganligiga ishonch yaralgandan so'nggina epik asarlar yozishni boshlagan. Xat formasida tarkib topgan mazkur qissada Laylining hayotga bo'lgan munosabati, o'zini tutishi, qobiliyati xatdan xatga o'tgan sari ochilib boradi. Yozuvchi ikki yoshning sevgisi bahonasi bilan hayotiy masalalarni o'rtaga tashlar ekan, poyoniga yetkazmasdan

Bir yutum suvdayin,
shirin, eshitsang,
his etsang og'riqli,
sevsang sevisga
arzirli, mutolaa etsang,
adabiyotning harir libosi
yuzlaring siypalaganday,
sochlarining silaganday
bo'lavermaydi. Shoirlikni
da'vo qilmay shoir,
so'zni qurol qilmay
publitsist bo'lgan inson
Tesha Saydaliyev
merosini o'rganish
lozim, o'qish zarurat.
Chunki u o'tgan asrning
yarmi adabiyotini
o'rganishda bir
pog'onadir.

Toshtemir
TURDIYEV,
O'zbekistonda
Respublikasida
xizmat ko'rsatgan
madaniyat xodimi

SURXON TONGI
va
ЗАРЯ СУРХАНА
gazetalari tahririyati

MUASSISLAR:
Xalq deputatlari
Surxondaryo
viloyat Kengashi
va viloyat
hokimligi

TAHRIR HAY'ATI
Jo'rabek TO'RAYEV
(hay'at raisi)
Abduraim CHORIYEV,
Murodbek
DAVLATOV,
Dinara
EGAMBERDIYEVA,
Xurshid KARSHIYEV

Gazeta
2017-yil
3-fevralda
viloyat Matbuot
va axborot
boshqarmasida
11-001-raqam
bilan qayta
ro'yxatdan
o'tgan.

BOSH MUHARRIR
Salohiddin
NORQOBILOV
MAS'UL MUHARRIR
Sayyora ALLAYEVA
NAVBAATCHI MUHARRIR
Xurshid KARSHIYEV
SAHIFALOVCHI
DIZAYNER
Dildora VOHIDOVA

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Muallif fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.
TELEFONLAR:
76 224-23-85,
76 224-23-80,
76 224-23-87
Qog'oz bichimi A-2,
2 bosma taboq
Nashr indeksi: 6 500
Bosishga topshirildi — 09:00
Bosildi — 11:00
Adadi 6 700 nusxa.
Buyurtma Γ-

MANZILIMIZ:
Termiz shahri,
Shukrona ko'chasi, 19-A uy
BOSMAXONA MANZILI:
Termiz shahri,
Shukrona ko'chasi, 19-A uy

Gazeta
“Surxon tongi”
va
“Заря Сурхана”
gazetalari
tahririyati
bosmaxonasida
chop etildi.